

Demografik holat

(dastlabki ma'lumotlar)

Doimiy aholi soni.

Qashqadaryo viloyati doimiy aholisi soni 2018 yil 1 iyul holatiga 3175,0 ming kishini tashkil etib, 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 26,6 ming kishiga yoki 0,8 %ga o'sgan. Jumladan, shahar aholisi soni 1368,6 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 43,1 %), qishloq aholisi soni 1806,4 ming kishini (56,9 %) tashkil etdi.

E'tibor bering: 2018 yil yanvar-iyun

- Aholi soni **26,6 ming kishiga** ko'paydi.
- Tirik tug'ilganlar soni **35,1 ming nafarni** tashkil etdi.
- **6,4 mingta** vafot etganlar qayd etildi.
- FHDYO bo'limlarida **9,2 mingta nikoh** va **0,9 mingta ajralishlar** ro'yxatga olindi.

Qashqadaryo viloyati aholisining umumiyo'sishi (2018 yil yanvar-iyun oylarida)

**Tirik tug'ilganlar
35,1 ming bola**

**Tabiiy
o'sish
+28,7
ming kishi**

**Vafot etganlar
6,4 ming kishi**

**Aholining
umumiyo'sishi
26,6
ming kishi**


**Ko'chib kelganlar
5,9 ming kishi**

**Mexanik
o'sish
(kamavish)
2,1
ming kishi**

**Ko'chib ketganlar
8,0 ming kishi**


Demografik holat

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2018 yil 1 iyul holatiga, ming kishi)



Qashqadaryo viloyati hududlari kesimida tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil 1 iyul holatiga eng ko'p aholi soni Chiroqchi tumanida 393,7 ming kishini (viloyat aholisi sonidagi ulushi 12,4 %ni) va Koson tumanida 274,9 ming kishini (8,7 %), aksincha eng kam aholi soni Muborak tumanida 83,8 ming kishini (2,6 %) va Mirishkor tumanida 115,6 ming kishi (3,6 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yugori o'sish sur'ati 2017 yilning mos davriga nisbatan Nishon tumanida 2,9 %ga, Chiroqchi tumanida 2,6 %ga, Koson tumanida 2,2 %ga, Yakkabog' tumanida 2,0%ga, aksincha eng kam o'sish sur'ati Shahrisabz va G'u-zor tumanlarida 1,6 %ni, Kitob tumanida 1,7% va Qarshi shahrida 1,4 %ni tashkil etdi.



Demografik holat

Tug'ilish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 35,1 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va bundan keyin tug'ilganlarga faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 22,4 promilleni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,0 promillega kamaygan (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 21,4 promille bo'lgan).

Tug'ilish koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Koson tumanida (21,5 promilledan 23,1 promillega), Muborak tumanida (20,4 promilledan 23,0 promillega) sezilarli o'sgan bo'lib, aksincha sezilarli darajada kamayish esa Kasbi (22,0 promilledan 21,4 promillega), Qarshi (19,9 promilledan 19,0 promillega), tumanida kuzatildi.

Ma'lumot uchun

Tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yisi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.



Qiz bolalar:
18,4
ming nafar

O'g'il bolalar:
16,7
ming nafar

Qashqadaryo viloyati bo'yicha tug'ilganlar soni (Yanvar-iyun, kishida)

	2017 y.	2018 y.	o'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	32919	35064	106,5
Qarshi sh.	2069	2672	129,1
Shahrisabz sh.	1076	1330	123,6
tumanlar:			
G'uzor	2106	2265	107,5
Dehqonobod	1760	1821	103,5
Qamashi	2894	2933	101,3
Qarshi	2297	2243	97,6
Koson	2851	3136	110,0
Kitob	2551	2537	99,5
Mirishkor	1207	1255	104,0
Muborak	829	952	114,8
Nishon	1633	1803	110,4
Kasbi	2025	1999	98,7
Chiroqchi	4946	5388	108,9
Shahrisabz	2027	1836	90,6
Yakkabog'	2648	2894	109,3

Demografik holat

Vafot etganlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida 6,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,1 promilleni tashkil etdi, 2017 yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega kamaydi (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 4,2 promille bo'lgan).

O'lim koeffitsiyenti 2017 yilning mos davriga nisbatan Qarshi shahrida (4,3 promilledan 4,5 promillega) va G'uzor tumanida (4,7 promilledan 4,8 promillega) o'sgan bo'lib, sezilarli darajada kamayishi Qamashi tumanida (4,3 promilledan 3,9 promillega), Muborak tumanida (4,8 promilledan 3,7 promillega), Nishon (4,1 promilledan 3,6 promillega) va Kashbi (4,5 promilledan 4,3 promillega) tumanlarida kuzatildi.

Vafot etganlar



Erkaklar: **Ayollar:**
3,5 ming kishi **2,9 ming kishi**

Qashqadaryo viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (Yanvar-iyun, kishida)


	2017 y.	2018 y.	o'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	6454	6399	99,1
Qarshi sh.	567	605	106,7
Shahrisabz sh.	294	270	91,8
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	448	472	105,4
Dehqonobod	269	263	97,8
Qamashi	550	508	92,4
Qarshi	522	528	101,1
Koson	535	514	96,1
Kitob	455	487	107,0
Mirishkor	228	223	97,8
Muborak	195	154	79,0
Nishon	289	260	90,0
Kasbi	416	406	97,6
Chiroqchi	723	692	95,7
Shahrisabz	406	459	113,1
Yakkabog'	557	558	100,2

Demografik holat

2018 yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 56,6 %i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 8,1 %i o'simtalardan, 6,4 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 5,4 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 5,0 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 17,4 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 0,4 ming nafarni tashkil etib, ularning 66,9 %i perinatal davrda yuzaga keladigan holatlardan, 14,6 %i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 7,2 %i tug'ma anomaliyalardan, 2,2 %i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 0,3 %i yuqumli va parazitar kasalliklardan, 0,6 %i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan va 8,2 %i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Asosiy o'lism sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi (jami vafot etganlarga nisbatan, %da)



2018 yil yanvar-iyun

Tabiiy o'sish. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida aholining tabiiy o'sishi 26,6 ming kishini tashkil etib, 2017 yil mos davriga nisbatan tenglashdi. (2017 yilning yanvar-iyun oylarida 24,5 ming kishi bo'lgan).



Tabiiy o'sish:
26,6 ming kishi

Demografik holat

Nikoh. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 9,2 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koefitsiyenti 5,8 promilleni tashkil etdi.

Tuzilgan nikohlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Nishon (120,1 %), Kasbi (118,6%), Dehqonobod (109,0 %), Chiroqchi (107,5%) va Qamashi (104,8%) tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Nikohdan ajralishlar. 2018 yilning yanvar-iyun oylarida FHDYO organlari tomonidan 0,9 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 0,6 promilleni tashkil etdi.

Ajrimlar soni 2017 yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Mirishkor(194,7%),Qamashi (107,6%),Kasbi(105,0%),tumanlariga to'g'ri kelmoqda.



Qashqadaryo viloyati bo'yicha tuzilgan nikohlar va ajralishlar soni, birlik



	Tuzilgan nikohlar			Nikohdan ajralishlar		
	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da	2017 y.	2018 y.	O'sish sur'ati % da
Qashqadaryo viloyati	8824	9171	103,9	933	898	96,2
Qarshi sh.	591	639	108,1	156	160	102,6
Shahrisabz sh.	380	384	101,0	59	53	89,8
<i>tumanlar:</i>						
<i>G'uzor</i>	<i>575</i>	<i>567</i>	<i>98,6</i>	<i>42</i>	<i>41</i>	<i>97,6</i>
Dehqonobod	469	511	109,0	29	24	82,8
Qamashi	747	783	104,8	66	71	107,6
Qarshi	585	610	104,3	70	68	97,1
Koson	789	800	101,4	68	50	73,5
Kitob	648	641	98,9	105	97	92,4
Mirishkor	323	338	104,6	19	37	194,7
Muborak	231	246	106,5	23	22	95,7
Nishon	422	507	120,1	36	35	97,2
Kasbi	451	535	118,6	40	42	105,0
Chiroqchi	1180	1268	107,5	75	70	93,3
Shahrisabz	619	629	101,6	74	67	90,5
Yakkabog'	814	713	87,6	71	61	85,9

Migratsiya. 2018 yil yanvar-iyun oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 5,9 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 8,0 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosi minus 2,1 ming kishi bo'lib, 2017 yilning mos davrida minus 2,1 ming kishi bo'lган.

Aholi migratsiyasi (ming kishi)

	2017 yil yanvar-iyun	2018 yil yanvar-iyun
Ko'chib kelganlar	5,7	5,9
Ko'chib ketganlar	7,8	8,0
Migratsiya saldosi	-2,1	-2,1

Migratsiya saldosining yuqori darajasi G'uzor, Qamashi (minus 0,3 ming kishi), Yakkabog' tumanida (minus 0,2 ming kishi), qayd etildi.